



BEGALI QOSIMOV ASARLARIDA BOBUR SHAXSIYATI VA
IJODINING ILMIY TALQINI

Nurmatullayeva Zilola Xikmatilla qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri*

E-mail: zilolanurmatullayeva@gmail.com

Tel: (97) 4005878

Annotatsiya: maqolada o'zbek matnshunosligi taraqqiyotida alohida o'rin tutgan yirik olim Begali Qosimovning boburshunoslikka qo'shgan ilmiy hissasi haqida so'z boradi. Tadqiqotda olimning Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va ijodiga bo'lgan yondashuvi, uning asarlaridagi badiiy-estetik tamoyillarni tahlil etish usullari hamda matnshunoslik nuqtayi nazaridan olib borgan izlanishlariga to'xtalinib, maqolaning kirish qismida filologik fanlar tizimida matnshunoslikning o'рни va ahamiyati, shuningdek, Bobur asarlarini matnshunoslik asosida o'rganishning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan. Asosiy qismda esa Begali Qosimovning Bobur asarlariga doir tadqiqotlari, ularning manbaviy asoslari, matn variantlari bilan ishlashdagi yondashuvlari, shuningdek, Bobur shaxsiyatining insoniy fazilatlari, ijodiy qarashlari va estetik konsepsiyasini talqin etishdagi ilmiy mezonlari tahlil qilingan. Shu bilan birga xulosa qismida olimning boburshunoslik sohasidagi izchil izlanishlari, bu yo'nalishga olib kirgan yangi ilmiy tamoyillari hamda o'zbek matnshunosligi rivojiga qo'shgan hissasi xususidagi umumlashma xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: boburshunoslik, matnshunoslik, o'zbek mumtoz adabiyoti, Begali Qosimov, tadqiqot, matnshunos, manbashunos, adabiy meros, qo'lyozma manbalar, badiiy-estetik talqin, ilmiy konsepsiya.

Abstract: this article explores the scholarly contribution of the prominent Uzbek researcher Begali Qosimov, who occupies a distinguished place in the development of Uzbek textual studies, to the field of Babur studies. The research examines Qosimov's approach to the personality and creative legacy of Zahiriddin Muhammad Babur, focusing on his methods of analyzing the artistic and aesthetic principles reflected in Babur's works from a textual and literary perspective. The introduction highlights the role and significance of textual studies within the system of philological sciences, as well as the theoretical and practical importance of studying Babur's works through a textological approach. The main body analyzes Qosimov's research on Babur's texts, the source foundations of his studies, his methods of working with textual variants, and the scholarly criteria applied in interpreting Babur's humanistic qualities, creative ideas, and aesthetic concepts. Furthermore, the conclusion presents generalized findings on the scholar's consistent research in Babur studies, the innovative theoretical principles he





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

introduced, and his substantial contribution to the advancement of Uzbek textual scholarship.

Keywords: *Babur studies, textual studies, Uzbek classical literature, Begali Qosimov, research, textologist, source studies, literary heritage, manuscript sources, artistic and aesthetic interpretation, scholarly concept.*

O'zbek adabiyotshunosligi va matnshunoslik fani taraqqiyotida shaxsiy ilmiy maktab yaratgan olimlar orasida professor Begali Qosimovning o'rni beqiyosdir. U o'z ilmiy izlanishlari orqali o'zbek adabiy merosi, xususan, mumtoz davr adabiyotining matnshunoslik asoslarini tahlil etish, nashrga tayyorlash hamda talqin qilish yo'lida yangi ilmiy mezonlar yaratgan. Begali Qosimov ijodining markazida adabiyotning manbaviy qatlamlarini tiklash, matnni asl holida anglash va talqin qilish tamoyillari mujassamdir. Olimning bu boradagi faoliyati, ayniqsa, boburshunoslik yo'nalishida yuksak ilmiy natijalar berdi. Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va ijodini o'rganish Begali Qosimov uchun nafaqat adabiy jarayonni tahlil qilish, balki milliy tafakkur, tarixiy xotira va ma'naviy merosni ilmiy asosda anglash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Bobur asarlari ustida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida u matnshunoslikning nazariy hamda amaliy masalalarini chuqur tahlil etgan, qo'lyozma manbalar bilan ishlashning ilmiy metodikasini takomillashtirgan³³.

Bugungi kunda Bobur merosini matnshunoslik asosida o'rganish nafaqat o'zbek adabiyotining tarixiy ildizlarini yanada aniqlash, balki turkiy adabiy makonning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek xalqining har taraflama yetuk, komil va g'oyatda iqtidorli dilbandi bo'lgan. U vatandan yiroqda ona yurt sog'inchini baland pardalarda kuylashdan, millatiga vafodor inson bo'lishdan sira charchamadi. Butun umrini nafaqat o'zi hukmronligi ostidagi xalq va yurtga, balki kindik qoni to'kilgan Vatani va millatining foydasi uchun ezgu amallarni bajarishga, umrboqiy asarlar yozib keyingi avlodga munosib meros qoldirishga sarfladi.

Manbashunos olim Begali Qosimov Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarida shunday deydi: "Tarix guvohki, o'tkan besh asr davomida uning mutafakkir dunyo nazar-e'tiboridan chetda qolgan payti bo'lgan emas. U haqda yozilgan kitoblar to'plansa, rosmi kutubxona bo'ladi. Uni Sharqda qancha sevsalar, G'arbda ham bundan kam sevmaydilar. Elfinston uning "Boburnoma"sini "Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasi" deb ta'riflaydi. Akademik V.V.Bartold "Turkiy nasrning mumtoz reslistik namunasi" deb baholaydi. Mashhur Vamberi bu asarni Yuliy Sezar "Kommentariyalar"iga qiyoslaydi va buni undan ko'ngilga yaqinroq topdi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin"³⁴.

³³ Bu haqida qarang: Nurmatullayeva Z. Begali Qosimov – manbashunos olim // International journal of scientific researchers Vol. 5 No. 1 (2024). – P. 731-734. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/2153>

³⁴ Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати, – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 113.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Begali Qosimov Zahiriddin Muhammad Boburning favqulotda betakror shaxs bo'lib yetishishini: "Bizningcha, asosiy gap bu buyuk shaxsiyatning samimiyatida, so'zi va ishi birligidadir. Shunday buyuklar borki, aqlu tafakkuri oldida shoshib, o'zingizni qo'yishga joy topa olmay qolasiz, lekin qalblarini sizga ochmaydilar. Faqat aqlu hikmatlarinigina ravo ko'radilar. Shu jihatdan, u hech kimga o'xshamaydi, betakrordir. Bobur ohangrabosi, bizningcha, uning mana shu samimiyligida, ko'nglining dunyoga sig'mas darajada kengligida", – deya izohlaydi. Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur olim ta'kidlaganidek, tili va amali bir holda umr kechirdi. Qisqa umri mobaynida amallarini so'zlariga esh qilishga, insonlarni o'zidan rozi kayfiyatda etishga intildi. Bu xususiyat barcha buyuklarda ham mavjud emas.


Manbashunos olim "Boburnoma" asarini Sharq realistik nasrining yorqin namunasi sifatida alohida ta'kidlab, asar syujeti, shaxslar tasviriga yuqori baho beradi. Asar voqealari haqida so'z yuritib, voqealar ketma-ketligi va syujeti Bobur samimiyati bilan tasvirlanganini bayon etadi. Uning deyarli har bir so'zida, jumlasida hukmfarmolikni o'ziga eng oliy maqsad bilgan, saltanatga mukkasidan ketgan hokimiyatparastning emas, jami insonlarga yaxshilik qilmoqni o'ziga shior hisoblagan, adolatni bayroq tutgan, adolatparast bir qalbning sadosini eshitganday bo'lamiz. Lekin shunga qaramay, u ham dushmanlarining boshini silagan emas va bu mutlaqo, tabiiy. Bobur otasining fazilatlarini haqida gapirish bilan cheklanmay, kamchiliklarini ham hech birini yashirmasligi tahsinga sazovordir. Masalaning tarix oldidagi haqqoniyligi va tarbiyaviy jihatini ham har doim yodda tutadi. "Masalan, "Mulkgirlik dag'dag'asi jihatidin xili yarashlar urushqa mubaddal (almashib ketmoq) bo'lur edi", – deb yozadi. Boburning murosa siyosatini aniqlashda muhim tamsildir bu"³⁵.

Olim Begali Qosimov "Boburnoma" asarini tahlil qilar ekan, quyidagi fikrlarni keltirib o'tib: "Boburnoma" o'zbek adabiyotining nasr taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi, uning tasvir va bayon usullari tarjimalar orqali boshqa adabiyotlarga ham o'tdi. G'arb va Sharqning fan va davlat arboblari Boburning tarix va madaniyat oldidagi xizmatlarini belgilashda "Boburnoma"ni asosiy manba deb qaraydilar. Hindiston tarixini yoritishda esa, hali ham buyuk Beruniyning "Hindiston"idan keyingi muhim asar "Boburnoma" bo'lib turibdi"³⁶, – deya fikrlarini tugallaydi 2003-yilda nashr etilgan maqolasida.

Manbashunos Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligiga bag'ishlangan tadbirda so'zlagan nutqida Boburning shoh va shoir sifatida alohida ta'riflab, tarixda u kabi insonlar ko'plab uchrashini keltirib o'tadi. "Boburni xalqimiz shoh va shoir sifatida biladi. Bir qaraganda, bu ikki jihat bir ko'ngulga sig'maydigandek. Go'yo shohlik va oshiqlikdek. Lekin hol shuki, juda ko'p sultonlarimiz she'riyat bilan saltanatni bir ko'ngulga jo qila olganlar. Amir Temur she'rdan zavq ola bilgan, yaxshi o'qiy bilgan (Navoiyning "Majolisun nafois"dagi fikrlarini eslash kifoya), "shohi dono" Ulug'bekdan she'riy satrlar saqlanib qolgan. Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Amir

³⁵ Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати, – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 121.

³⁶ Ko'rsatilgan manba – Qosimov B. – B.118.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Umarxon, Muhammad Rahimxonlar rosmuna shoirlardek devon tartib qilganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur ham shoh, ham shoir sifatida, tabiiyki, benihoya mumtoz bir o‘ringa ega”³⁷.

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi haqida so‘z yuritilganda, uni faqatgina bir kishiga Alisher Navoiyga qiyos qilish mumkin. Asarlarining ko‘lami, salmog‘i bilan emas, kuchi-qudrati bilan. Zero, Begali Qosimov shunday ta’kidlaydi. Ma’lumki, uning she’rlari ko‘p emas, yuztacha g‘azali, ikki yuztacha ruboiysi bor, xolos. Lekin ular shavqi-shiddati bilan ko‘ngilga yo‘l topa oladigan she’rlardir, an’anaviy she’riyatimizga yangi ruh, toza nafas olib kirgan she’rlardir. U Navoiydan keyin ikkinchi bo‘lib she’riyatimizning vazni – aruz haqida maxsus asar yozdi. E’tiborli jihati shundaki, u mutaxassislar o‘sha davr iqtisodiy hayotini o‘rganishda ahamiyati beqiyos deb hisoblangan “Mubayyin” asarini yaratdi.


Manbashunos o‘z tadqiqotlarida Boburning shoirligi bilan bir qatorda yengilmas shoh, lashkarboshi sifatidagi xususiyatlarini ham atroflicha ta’riflaydi. Ayniqsa, uning Hindistonga yurish vaqtidagi kayfiyati va amallariga keng o‘rin berib, bu jihatini qo‘llab-quvvatlaydi. Olim buni shunday izohlaydi: “Bobur Hindistonga qilich ko‘tarib borgan bo‘lsa-da, u xalqni o‘zi bilan teng tutdi, ayrim istilochilar singari, uning urf-odatlarini oyoqosti qilmadi, e’tiqodini kamsitmadi, aksincha, ularni baland maqomda tutdi. U borgan mamlakatiga zo‘ravonlik bilan o‘z tilini, urfini joriy etmadi, borgan yurtining nufusini o‘z hisobiga orttirmadi. Bir so‘z bilan aytganda, ma’rifat bilan ish tutdi. Hamma masalada insof va adolat tarozusini ushladi. Dunyoning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanmush Tojmahal mana shu boburiylar davrida, shularning rag‘bat va tashabbusi bilan qurilganini eslash kifoya”³⁸. Chunonchi, barcha dunyo tan olgan sarkardalar bosib olgan yurtida o‘z siyosati va urf-odatlarini dasturiy qilgan bir davrda Boburning bu qadar keng fe‘l va ochiq ko‘zligiga tahsin aytmay iloj yo‘q.

Begali Qosimov Bobur shaxsiyati va bu shaxsiyatning ijodda akslanishi xususida turli fikrlar bildiradi. Bobur hayotda ham, ijodda ham benihoya samimiy edi. Bobur ijodi quvonch-u g‘amga, baxt bilan baxtsizlikka to‘la bo‘lgan, ayni paytda nihoyatda ma’rifatli, nozik didli inson hayotining, murakkab tuyg‘ularining yorqin bir ifodasidir. Manbashunos olim Bobur ijodini o‘rganar ekan, uning bundan yigirma yilcha oldin “Boburnoma”ga kirmagan bir parchasini topadi. Mazkur parcha Qozonga borib qoladi. Bu Boburning o‘g‘li Kamronga yozgan 1526-yildagi maktubining ko‘chirilgan nusxasi edi.

Begali Qosimov Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o‘rganish va tadqiq etish haqida fikr yuritib shunday deydi: “Bugun Bobur merosining milliy g‘oya, milliy o‘z-o‘zini anglashdagi ibrati katta. Vatanga uning mehriday mehr kerak, uning hurmatiday hurmat

³⁷ Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати, – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 119.

³⁸ Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати, – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 121.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kerak. Tarixni anglashda, o'zlikni anglashda uning qunti, saboti, matonati kerak. Mustaqillikni mustahkamlash uchun uning shiddati, uning shijoati kerak"³⁹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Begali Qosimovning Boburga hayoti va adabiy merosini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarida azaldan milliy tafakkur markazida bo'lgan, bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan uchlik tushuncha – millat, o'zlik va din masalalari o'zaro chambarchas bog'liq holda tahlil etiladi. Olim bu tushunchalarni bir-biridan ajratmasdan, yaxlit ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratdi.

Begali Qosimov o'zining serqirra ilmiy faoliyati bilan nafaqat o'zbek boburshunosligiga, balki butun milliy tafakkurimiz va ma'naviyatimizga beminnat xizmat qilgan. Uning mazkur yo'nalishdagi ilmiy merosi bugungi va kelajakdagi tadqiqotchilar uchun boy ilmiy manba sifatida milliy adabiy merosni chuqur o'rganish yo'lidagi ishonchli yo'l ko'rsatkich vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmatullayeva Z. Begali Qosimov – manbashunos olim // International journal of scientific researchers Vol. 5 No. 1 (2024). – P. 731-734. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/2153>
2. Қосимов Б. Танланган асарлар. I жилд. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнинг адабий мероси // Тошкент: Фафур Гулом нашриёт-матбаа уйи, 2023.
3. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
4. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.

³⁹ Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати, – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 124.

